

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**AHOLINING TURLI GURUHLARI BILAN IJTIMOYIY ISH FANINIING
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	900 000-Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	920 000-Ijtimoiy ta'minot
Ta'lim yo'nalishi:	60920100-Ijtimoiy ish

Toshkent-2024

Fan/modul' kodi ATG1210	O'quv yili 2024-2026	Semestr 2/3	ECTS - Kreditlar 6/4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek, rus		Haftadagi dars soatlari 4/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Aholining turli guruhlari bilan ijtimoiy ish fanining	120	180	300
2	<p>I.Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad — aholini zaif qatlamlarini ajrata bilishi, ulami asosiy toifalariga ijtimoiy xizmat taqdim etish borasida nazariy va amaliy bilimlarni berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi — jamiyatdagi aholini turli qatlamlari va ularga yordam ko'rsatish shakllarini, jumladan, ijtimoiy ishda zarur bo'lgan aholining zaif bo'lgan turli guruhlari, nogironligi bor bolalarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi, yoshlar bilan, keksalar bilan ijtimoiy ish Olib borish, moslashuvi qiyin bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy ish, migrantlar va qochoqlar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari, zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan ayollar, harbiylar va ularning oilalari, aniq yashash joyi bo'lmagan shaxslar bilan, jazo o'tab bo'lgan yoki jazo o'tayotgan shaxslar bilan ijtimoiy ish Olib borishni bo'yicha bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>11.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Ijtimoiy ta'minot: uning vazifasi, tarixi va kelajagi.</p> <p>Ijtimoiy farovonlikning maqsadi, jamiyatdagi har bir shaxsning ijtimoiy, moliyaviy, tibbiy salomatligi va hordiq chiqarish muammolari bilan ishlash. Ijtimoiy ta'minot, barcha yosh guruhlari, yuqori va quyi qatlamning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirishi muammolari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatdagi boshqa institutlar kabi oila va kishilarning sotsial guruhlari eng muhim ijtimoiy xizmatlarga talab va ehtiyojlarni ortishi.</p> <p>2-mavzu. Kam ta'minlanganlik va umumiy ta'minot</p> <p>Qashshoqlik, doimiy ichimlik suviga ega bo'lmaslik, to'yib ovqatlanmaslik, yashash joyi sharoitlarining yomonligi, yashash joyida zaruriy shart-sharoitlar yaratilmaganligi. Zaruriy kiyim-kechaklarni mavjud bo'lmasligini kam ta'minlanganlikni anglatishi. Emotsional buzilishlar, ichkilikbozlik va jinoyatga yo'l ochib, hayotdan umidvorlikni so'ndirish. Yetishmovchilik shaxsning ijtimoiy hayoti, ta'lim olishidagi imkoniyatlari.</p> <p>3-mavzu. Hayotiy faoliyatning turli sohalarida ijtimoiy ish</p> <p>Hayotiy faoliyatning turli sohalaridagi ijtimoiy ishning nazariy-metodologik va uslubiy muammolari. Moddiy ishlab chiqarish sohasida ijtimoiy ish. Ta'lim sohasida ijtimoiy ish. Ijtimoiy soha inson hayotini ta'minlash tizimi sifatida. Moddiy ishlab chiqarish sohasida ijtimoiy hamkorlik asosida ishchilarni ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy yordam ko'rsatish. Ishlab chiqarishdagi ijtimoiy ishda mehnat shartnomalarining o'rni va roli. Ishlab chiqarish tashkilotlari xizmatchilari ijtimoiy himoyasining tamoyillari va kafolatlari.</p>			

4-mavzu. Ta'limdagi muammolar va maktabda ijtimoiy ishi

Ta'lim tizimidagi muammolar. Demokratik jamiyatda ta'lim tizimi hamma uchun imkoniyat yaratadigan umumiy rishtaga aylanishi. Jamoatchilikning muhokamasi va qo'llab quvvatlashning kamayishi ta'lim tizimini inqirozga yuz tutishining sababi. Jamiyatimiz iqtisodiyoti yuqori texnologiyalar, kompyuter va kommunikatsion tizimlarni joriy etish asosida rivojlanishi. Avtomatlashtirilgan mexanizatsiyalar va robotlar oddiy ishchidan ko'proq ish bajarishi. Texnologik innovatsiya insonning faoliyati osonlashtirishi.

5-mavzu. Salomatlik muammolari va tibbiy ijtimoiy xizmatlar

Shifokorlarning faoliyati haqida. Atrof muhitning sanoatlashuv natijasida havoning ifloslanishi. Ekologik muhitni yaxshilash bilan bir qatorda tibbiy xizmatlarni ham yangi darajada joriy etish masalalari. Har bir mintaqada barcha shaft-sharoitlarga ega zamonaviy uskunar bilan ta'minlangan tibbiyot muassasalari joriy etishi. Aholi orasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirilishi.

6-mavzu. Jismoniy va aqliy nogironlik va ularni tiklash

Jamiyatning a'zolari ichida jismoniy va aqliy nosoz kishilarning uchrashi. Tibbiyot rivojlanishi bilan kishilarning jismoniy kamchiliklarini oldini Olish imkoniyati vujudga kelishi. Jismoniy va aqliy kamchilikka ega bo'lgan kishilarda jamiyatga singib ketishi. Jamiyatning boshqa a'zolari doimo ular uchun qayg'urish burch hisoblanishi. Nogironlik va reabilitatsiya tushunchalarining mohiyati, reabilitatsiya turlari. Salomatligida muammosi mavjud bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish tamoyillari. Oiladan tashqarida yashovchi nogironligi bor bolalar reabilitatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Nogiron bolalar ijtimoiypedagogik reabilitatsiyasi muammolari. Ijtimoiy reabilitatsiya muammolarini yengib o'tish xususiyatlarini rivojlantirish.

7-mavzu. Yoshlar bilan ijtimoiy ish

“Yoshlarga oid Davlat siyosati” ning mazmun mohiyati. Yoshlar o'ziga xos demografik guruh sifatida. Yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlarning tuzilishi va vazifalari. Yoshlar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari. Yoshlar bilan ijtimoiy ish modellari-integrativ va defitsit.

8-mavzu. Keksalik va keksalarga oid xizmatlar

Insonni yoshi o'tgani sari turli xil qobiliyatlarining pasayishi. Tana a'zolari o'z funksiyasini to'la bajara ololmay qolishi. Asab tizimida o'zgarishlar kuzatilishi. Kexsa yoshdagi odamlar uchun zaruriy shart-sharoitlarga ega pansionatlar, dam Olish sihatgohlari, davolanish maskanlarini tashkil etilishi.

Keksalarning ijtimoiy holati va psixologik xususiyatlari. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti bo'yicha keksalar klassifikatsiyasi. Keksalarga xizmat ko'rsatish, ta'minlash va vasiylik qilish. Keksalar bilan ijtimoiy ishning asosiy nazariy konsepsiyalari va maqsadlari. Cheł el davlatlarida nogironligi bor keksalar bilan ijtimoiy ish tajribasi.

9-mavzu. Jinoyatchilik, voyaga yetmaganlar jinoyati va profilaktika xizmatlari

Jinoyatchilik qonunni buzish yoki unga rioya etmaslik harakati. Qonun siyosiy hokimiyat tomonidan boshqariladigan rasmiy ijtimoiy qoida. Davlat qonunini buzish harakatlarini qat'iy me'yorlar asosida oldini olishi. Me'yorlarni

buzish bilan bog'liq barcha xatti-harakatlar ham qonun tomonidan taqiqlanmaganligi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlar, bolaning huquq normalarni to'la anglal yetmasligi, o'z xatti-harakatlariga mustaqil javob bera olmasligi bilan izohlanishi.

Moslashuvi qiyin bo'lgan bolalar bilan ishlovchi muassasalarning vazifalari Moslashuvi qiyin bo'lgan bolalar va o'smirlar uchun priyutlar. Oilaviy guruhlarni tuzish. Moslashuvi qiyin bo'lgan bolalar va o'smirlar bilan ishlash tizimi

10-mavzu. Oila muammolari va oila uchun yaratilgan xizmatlar

Oila har bir madaniyat shaklida sotsial institut sifatida. Odamlarning turmush orqali avlod qoldirishi. Jamiyatda odamlar o'zlarining o'ziga xos va mos keladigan namunalarini his etishlari. Ko'pchilik tomonidan qabul qilingan normalar. odatlarini buzish, axloqsizlik kabi jihatlari tanqid qilinishi.

Oila ilk ijtimoiy muhit sifatida. Oila bilan ijtimoiy ishning mohiyati mazmuni. Nogiron bolalari bo'lgan oilalar bilan ijtimoiy ish yo'nalishlari. Nogiron farzandlar bo'lgan oilalarning tarbiya vazifalari. Aqlan zaif nogiron bolalar ularning oilalari bilan ijtimoiy ish usullari. Ayollarning ijtimoiy holati. Zo'ravonlik — ayol va bolalarga og'riq va jarohat yetkazuvchi jismoniy ta'sir. Oilada zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollarning tibbiy — ijtimoiy muammolari. Oiladagi zo'ravonlik sabablari. Zo'ravonlik qurbonlari bilan ijtimoiy ish usullari.

11-mavzu. Narkomaniya va unga qarshi dasturlar

Narkotik moddalarni har qanday shaklini qabul qilishga odatlanish sistemasiga ta'sir etishi. Zararli kimyoviy moddani qabul qilgan kishilarda ruhiyat, sezish qobiliyati, tana funksiyalari bajara olmaslik, kabi kamchiliklar yuzaga kelishi. Narkotik moddalarni doimiy iste'mol qilishi boshqa odamlar bilan munosabatini buzilishiga, o'zining salomatligiga ziyon yetkazishiga yoki jamiyatga xavf solishiga sabab bo'lishi. Jamiyatda narkotik iste'mol qilinishini aniqlash uchun ikki omilni solishtirish: narkotikning ta'sirida, guruhning ta'sirida.

12-mavzu. Millatlararo munosabatlar muhitida ijtimoiy ish

Etnoslararo muhit: tushuncha, o'ziga xoslik va mazmun. Mayda millatlarning, diasporalarning insoniyat etnik tarixidan uzilmagan holda vujudga kelishi. Diasporalarning shakllanishida migratsiyaning roli. Etnik migratsiyaning ijobiy salbiy roli. Millatlararo munosabatlar muhitida ijtimoiy ish usullari.

13-mavzu. Migranlar va qochoqlar bilan ijtimoiy ish texnologiyasi

Migratsiya tushunchasi. Migranlar bilan ijtimoiy ishning huquqiy asoslari. Migranlar bilan ijtimoiy ish. Aholi migratsiyasi aholining ijtimoiy va mehnat mobilligining o'sishi, iqtisodiy tuzilmaning ishlab chiqarish kuchlarining joylashishining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida. Migratsion jarayonlar tasnifi. Majburiy migratsiya oqibatlari. Yevropa mamlakatlarining migratsion siyosati

14-mavzu. Aniq yashash joyi bo'lmagan shaxslar bilan ijtimoiy ish

Boshpanasizlik va daydilikning paydo bo'lishi sabablari. "Bomj" toifasidagi shaxslar bilan tibbiy-ijtimoiy ishning o'ziga xos xususiyatlari. Aniq yashash joyi bo'lmagan shaxslar bilan ishlashda ijtimoiy ishchilarga qo'yiladigan talablar. Daydilik-shaxslarning uzoq muddat davomida mamlakat, aholi punkti yoki shahar

hududida daydib yurishi bilan xarakterlanadigan ijtimoiy hodisa. Boshpanasizlik-individ yoki uning oila a'zolarida o'troq, shuningdek ijtimoiy vazifalarini bajarishiga imkon bermaydigan hayot tarzining va doimiy yashash joyining mavjud bo'lmasligi.

15-mavzu. Jazo o'tagan yoki jazo o'tayotgan shaxslar o'rtasida ijtimoiy ish

Penetensionar ijtimoiy ishning predmeti va tushunchaviy kategorial apparati. Penetensionar ijtimoiy ishning tamoyillari va vazifalari. Jazoni ijro etish tizimida ijtimoiy ishning obyekt va subyekt. Jazoga hukm etilganlar bilan ijtimoiy ish tizimi va uning jazoni o'tash muassasalari tizimidagi o'rni. Jinoiy javobgarlikka tortilganlar shaxslar bilan ijtimoiy ishning asosiy shakl va usullari. Jazoni o'tab bo'layotganlarni ozodlikka tayyorlash bo'yicha ijtimoiy ish.

16-mavzu. Ishsizlar bilan ijtimoiy ish usullari

Ishsizlik: ta'rif va tasnif. Ishsizlik turlari. Ishsizlik bilan bog'liq muammolar. Ishsizlik aholining iqtisodiy faol, mehnatga layoqatli vakillarining ishlab chiqarishda o'z o'rnini topa olmasligi bilan bog'liq ijtimoiy iqtisodiy hodisa sifatida. Ishsizlarning asosiy guruhlari. Ishsizlar oilalari bilan ijtimoiy ish. Aholi bandligi sohasida ijtimoiy ish.

17-mavzu. Qiyin vaziyatga tushgan ayollar bilan ijtimoiy ish

Ijtimoiy ishda qiyin vaziyat tushunchasi. Bugungi kunda ayollar huquqlarini himoya qiluvchi me'yoriy hujjatlar. Ayollarni qiyin vaziyatga tushish turlari. Ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish usullari.

18-mavzu. Harbiylar va ularning oilalari bilan ijtimoiy ish

Harbiy va ularning oilalari ijtimoiy ish mijozlari. Harbiylarning ijtimoiy, psixologik, tibbiyot muammolari. Harbiylarning oilalari bilan ijtimoiy ish.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ijtimoiy ta'minot: uning vazifasi, tarixi va kelajagi
2. Kam ta'minlanganlik va umumiy ta'minot
3. Hayotiy faoliyatning turli sohalarida ijtimoiy ish
4. Ta'limdagi muammolar va maktabda ijtimoiy ishi
5. Salomatlik muammolari va tibbiy ijtimoiy xizmatlar
6. Jismoniy va aqliy nogironlik va ularni tiklash
7. Yoshlar bilan ijtimoiy ish
8. Keksalik va keksalarga oid xizmatlar
9. Jinoyatchilik, voyaga yetmaganlar jinoyati va profilaktika xizmatlari
10. Oila muammolari va oila uchun yaratilgan xizmatlar
11. Narkomaniya va unga qarshi dasturlar muhitida ijtimoiy ish.
12. Millatlararo munosabatlar
13. Migrantlar va qochoqlar bilan ijtimoiy ish texnologiyasi.
14. Aniq yashash joyi bo'lmagan shaxslar bilan ijtimoiy ish.
15. Jazo o'tagan yoki jazo o'tayotgan shaxslar o'rtasida ijtimoiy ish
16. Ishsizlar bilan ijtimoiy ish usullari
17. Qiyin vaziyatga tushgan ayollar bilan ijtimoiy ish
18. Harbiylar va ularning oilalari bilan ijtimoiy ish

IV.Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1.Ijtimoiy ta'minot: uning vazifasi, tarixi va kelajagi
 - 2.Kam ta'minlanganlik va umumiy ta'minot
 - 3 Hayotiy faoliyatning turli sohalarida ijtimoiy ish
 - 4.Ta'limdagi muammolar va maktabda ijtimoiy ishi
 - 5.Salomatlik muammolari va tibbiy ijtimoiy xizmatlar
 - 6.Jismoniy va aqliy nogironlik va ularni tiklash
 7. Yoshlar bilan ijtimoiy ish
 - 8.Keksalik va keksalarga oid xizmatlar
 - 9.Jinoyatchilik, voyaga yetmaganlar jinoyati va profilaktika xizmatlari
 - 10.Oila muammolari va oila uchun yaratilgan xizmatlar
 - 11.Narkomaniya va unga qarshi dasturlar muhitida ijtimoiy ish.
 - 12.Millatlararo munosabatlar
 - 13.Migrantlar va qochoqlar bilan ijtimoiy ish texnologiyasi.
 14. Aniq yashash joyi bo'lmagan shaxslar bilan ijtimoiy ish.
 - 15.Jazo o'tagan yoki jazo o'tayotgan shaxslar o'rtasida ijtimoiy ish
 - 16.Ishsizlar bilan ijtimoiy ish usullari
 17. Qiyin vaziyatga tushgan ayollar bilan ijtimoiy ish
 18. Harbiylar va ularning oilalari bilan ijtimoiy ish
- V. Kurs ish mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

V.Kurs ishi mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Aholini turli guruhlari bilan ishlashda ijtimoiy xodimning maqsad va vazifalari
- 2.O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyati
3. Nogironlik tushunchasi, turlari
- 4.Migratsiya jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar bilan ijtimoiy ish
5. Ishsizlikni ta'rif, ishsizlarning asosiy muammolari
6. Ijtimoiy farovonlikning maqsadi va vazifalari.
- 7.Kam ta'minlanganlik tushunchasi va uni oldini olish mexanizmlari
- 8.Moddiy ishlab chiqarish sohasida ijtimoiy hamkorlik asosida ishchilarni ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy yordam ko'rsatish
- 9.Salomatligida muammosi mavjud bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish tamoyillari
- 10.Oiladan tashqarida yashovchi nogironligi bor bolalar reabilitatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari
11. Yoshlar o'ziga xos demografik guruh sifatida
- 12.Keksa yoshdagi shaxslar bilan ijtimoiy ishning o'ziga xos jihatlari
- 13.Aqlan zaif nogiron bolalar va ularning oilalari bilan ijtimoiy ish usullari
14. Aholi migratsiyasi va uning salbiy oqibatlari
- 15.Aniq yashash joyi bo'lmagan shaxslar bilan ishlashda ijtimoiy ishchilarga qo'yiladigan talablar.
- 16.Ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish usullari.
- 17.Aholi bandligi sohasida ijtimoiy ish.
- 18.Jazoga hukm etilganlar bilan ijtimoiy ish tizimi va uning jazoni o'tash

	<p>muassasalari tizimidagi o'rni.</p> <p>19. Jinoiy javobgarlikka tortilganlar shaxslar bilan ijtimoiy ishning asosiy shakli va usullari.</p> <p style="text-align: center;">VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ijtimoiy ishda texnologiya tushunchasi va turlari 2. Nogironlik va rehabilitatsiya tushunchalarining mohiyati, rehabilitatsiya turlari 3. Nogiron a'zosi bo'lgan oilada ijtimoiy ishning mohiyati va mazmuni 4. Moslashuvi qiyin bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy ish 5. Ijtimoiy ishda qiyin hayotiy vaziyat tushunchasi, asosiy xususiyatlari 6. Bugungi kunda ayollar huquqlarini himoya qiluvchi me'yoriy hujjatlar tavsifi 7. Ayollar bilan ijtimoiy ish usullari 8. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollar va bolalar bilan ijtimoiy rehabilitatsiyani amalga oshirish jarayonlari 9. Migranlar va qochoqlar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari 10. Harbiylar va ularning oilalari ijtimoiy ishning o'ziga xos xususiyatlari 11. Aniq yashash joyi bo'lmagan shaxslar bilan ijtimoiy ish 12. Aniq yashash joyi bo'lmagan shaxslar bilan ishlashda AQSh tajribasi 13. Ijtimoiy me'yorlar: tabiati, vazifasi, tipologiyasi 14. Ijtimoiy sanksiyalar ijtimoiy nazorat elementi sifatida 15. Deviant xulq-atvor sabablari va deviant xulq-atvorga bo'lgan asosiy yondashuvlari 16. Deviant xulq-atvorning asosiy shakllari 17. AQShda migranlar va qochoqlar bilan ijtimoiy ish 18. Buyuk Britaniyada migranlar va qochoqlar bilan ijtimoiy ish 19. Zamonaviy oila muammolari 20. Voyaga yetmagan shaxs tushunchasi 21. Jazoni o'tab bo'layotganlarni ozodlikka tayyorlash bo'yicha ijtimoiy ish
3	<p style="text-align: center;">VII. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari</p> <p style="text-align: center;">Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • hayotiy faoliyatning turli sohalari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash va ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, yoshlar, keksalar jamiyatga moslashishi qiyin bo'lgan bolalar zo'ravonlikka uchragan ayollar bilan ijtimoiy ish Olib borish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • aholini turli guruhlari bilan ijtimoiy ish Olib borish texnologiyalarini migranlar va qochoqlar harbiylar va ularning oilalari, aniq yashash joyi bo'lmaganlar, jazo o'tab bo'lgan yoki jazo o'tayotganlar to'g'risida muammolarni bilish va ulardan foydalana Olishi; (ko'nikma) • talaba ijtimoiy ish xodimi sifatida ijtimoiy muammolarni yechimini topish ko'nikmalari ega bo'lishi kerak. Malaka
4	<p style="text-align: center;">VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ ma'ruzalar; ✓ interfaol keys-stadilar; ✓ seminarlar (mantiqiy fikrlash, lezkor savol-javoblar);

	<ul style="list-style-type: none"> ✓ guruhlarda ishlash; ✓ taqdimotlarni qilish;
5	<p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <p>1. Алексеева В.С. Практика социальной работы с различными группами населения. Учебное пособие, Тошкент: Fan ziyosi 2021.-226 б.</p> <p>2.Н.Ф. Басова. Социальная работа с различными группами населения: учебное пособие / коллектив авторов; под ред. М.: КНОРУС, 2021, -528 с.</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023.80 b.</p> <p>2.Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022.-416 b.</p> <p>3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Asambliyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma [matn]:- T.: "Ma'naviyat", 2021.-280 b.</p> <p>4.Sh.M.Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir [matn]: Toshkent: TASVIR nashriyot uyi, 2021. 36 b.</p> <p>5. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020.408 b.</p> <p>6. Технологии социальной работы с различными группами населения: Учебное пособие сост. Л.З. Гостева, Н.М. Полевая. Благовещенск: Изд-во АМГУ, 2015.</p> <p>7. Социальная работа с различными группами населения: учебное пособие / коллектив авторов; под ред. Н.Ф. Басова. — М. 2012. 528 с.</p> <p>8. Технологии социальной работы с различными группами населения: Учебное пособие / Под ред. проф. П.Д. Павленка. М. 2009. 272 с.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>1.http://www.gov.uz</p> <p>2.http://www.ziyonet.uz</p> <p>3.http://www.social work</p>
7	<p style="text-align: center;">O'quv dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2024-yil 25-avgustdagi -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8	<p style="text-align: center;">Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>M.Mirzayev - Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)</p> <p>O.Ergasheva - Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)</p>
9	<p style="text-align: center;">Taqrizchilar:</p> <p>M.Bozorova - Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent</p> <p>A.Kenjabayev - Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent</p>